

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60730100 – Arxitektura
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60730100 – Arxitektura

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: NAZAROVA DINARA ANVAROVNA

Toshkent arxitektura qurilish universiteti

falsafa doktori (PhD), professor



A'zo: JOANNA POON

Self-employed

falsafa doktori (PhD)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260034
Xulosa raqami	838
Xulosa sanasi	10.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Talabalar ko'chasi, 9-uy. Guvohnoma: MAS № 0000136, 16.06.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Arxitektura
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60730100
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000136, 16.06.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60730100 – Arxitektura
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60730100 – Architecture
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60730100 – Архитектура
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Arxitektor
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	100 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Talabalar ko'chasi, 9-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Qisman muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Qisman muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Qisman muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Qisman muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Qisman muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra, "Guliston davlat universiteti" davlat muassasasining "Arxitektura" ta'lim dasturi bo'yicha tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi umumiy holatda muvofiq deb baholanadi. Dasturni amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilma, uning vakolatlari va funksiyalari belgilangan bo'lib, faoliyati amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilgan. Shu bilan birga, istiqbolli rivojlanish rejasi va uni baholash mexanizmlari bilan bog'liq ayrim indikatorlar (1.2-mezon) bo'yicha kamchiliklar aniqlanganligi sababli mazkur mezon qisman muvofiq deb baholanadi. Xususan, rivojlanish rejasining maqsadlari, vazifalari hamda ularning bajarilishini baholash ko'rsatkichlarini yanada aniq va to'liq shakllantirish zarur. Ichki sifatni ta'minlash tizimi hamda manfaatdor tomonlar ishtirokini ta'minlash mexanizmlari mavjud bo'lib, ularni tizimli ravishda hujjatlashtirish tavsiya etiladi. Umuman olganda, tashkiliy-boshqaruv modeli ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur asosiy shart-sharoitlarni ta'minlaydi. O'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan yo'nalish muvofiq deb baholanadi, 1.2-mezon bo'yicha esa takomillashtirish zarur deb topiladi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijasida "Arxitektura" ta'lim dasturi mamlakatning barqaror rivojlanish maqsadlari hamda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishlariga muvofiq ishlab chiqilgani aniqlanadi. O'quv rejasida arxitektura yo'nalishi uchun tahliliy fanlar va amaliy mashg'ulotlar ulushining yuqoriligi ijobiy baholanadi, chunki arxitektorlarni tayyorlash nazariy tahlil hamda amaliy loyihalash ko'nikmalarining uzviy uyg'unligini talab etadi. Shu bilan birga, ta'lim dasturining maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalarining oliy ta'lim muassasasining akademik

profili hamda mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiqligini asoslash bilan bog'liq ayrim indikatorlar (2.2-mezon) bo'yicha kamchiliklar aniqlanganligi sababli mazkur mezon qisman muvofiq deb baholanadi. Mazkur jihatni tahliliy dalillar va asoslantiruvchi materiallar bilan yanada mustahkamlash tavsiya etiladi. Fanlarning ketma-ketligi va mazmuniy uyg'unligi umumiy holatda ta'minlangan. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi mazmuni yo'nalishi muvofiq deb baholanadi, 2.2-mezon bo'yicha esa asoslashni kuchaytirish zarur deb topiladi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijasida "Arxitektura" ta'lim dasturida o'quv jarayonini tashkil etish, fanlar ketma-ketligi, amaliyot bazalari, baholash tizimi, apellyatsiya mexanizmi hamda akademik halollikni ta'minlash bo'yicha asosiy tartiblar shakllantirilgani aniqlanadi. Ta'lim dasturi o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgan bo'lib, amaliy tayyorgarlikni ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Arxitektura yo'nalishi uchun amaliy loyihalash mashg'ulotlari va amaliyot bazalari alohida ahamiyat kasb etadi. O'quv rejalari va fan dasturlarida ushbu komponentlarning nazarda tutilgani ijobiy baholanadi. Baholash tizimining shaffofligini ta'minlovchi mexanizmlar hamda akademik halollikni ta'minlash tartiblarining mavjudligi ta'lim jarayonining xolisligi va ishonchliligini oshiradi. Shu bilan birga, o'quv jarayonini manfaatdor tomonlar ishtirokida yanada takomillashtirish hamda amaliyot bazalarini kengaytirish tavsiya etiladi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan o'quv jarayoni va baholash tizimi muvofiq deb baholanadi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijasida qabul parametrlarining ta'lim tashkiloti resurslari va imkoniyatlariga muvofiqligi tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, universitetda auditoriyalar, laboratoriyalar, amaliyot bazalari, texnik jihozlar, sport inshootlari, ovqatlanish shoxobchalari, tibbiy xizmat punkti hamda talabalar turar joyi imkoniyatlari ta'lim jarayonini tashkil etishda inobatga olingani aniqlanadi. Shu bilan birga, axborot-resurs markazi imkoniyatlari va uning sig'imini talabalar soniga muvofiqligi bilan bog'liq ayrim indikatorlar (4.1-mezon) bo'yicha kamchiliklar aniqlanganligi sababli mazkur mezon qisman muvofiq deb baholanadi. Xususan, qabul parametrlarini axborot-resurs markazining mavjud sig'imi bilan yanada mutanosiblashtirish tavsiya etiladi. Talabalarni qabul qilish, ularning harakatini tartibga solish hamda qo'llab-quvvatlash bo'yicha amaldagi tartiblar mavjud bo'lib,

ular shaffof va adolatli deb baholanadi. O'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan talabalar faoliyati yo'nalishi muvofiq deb baholanadi, 4.1-mezon bo'yicha esa resurslar muvozanatini kuchaytirish zarur deb topiladi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha zarur ma'lumotlar shakllantirilgani aniqlanadi. Shu bilan birga, kadrlar salohiyatining ilmiy darajasi tahlil qilinganda, professor-o'qituvchilarning 4 nafari ilmiy darajaga, 4 nafari ilmiy unvonga ega ekani, 11 nafar pedagog xodim esa ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega emasligi, shuningdek, tashqi o'rindoshlik asosida 1 nafar professor-o'qituvchi jalb etilgani qayd etiladi. Mazkur holat arxitektura kabi ilmiy va amaliy jihatdan murakkab yo'nalish uchun ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilar ulushini oshirish zarurligini ko'rsatadi, chunki bu ta'lim sifatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Mavjud kadrlar tarkibi ta'lim dasturini amalga oshirishning asosiy ehtiyojlarini qondiradi. Shu bilan birga, kadrlarni rivojlantirish, maqsadli doktorantura hamda malaka oshirish mexanizmlarini kuchaytirish tavsiya etiladi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan inson resurslari yo'nalishi muvofiq deb baholanadi, ilmiy salohiyatni oshirish esa ustuvor vazifa sifatida belgilanadi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijasida "Arxitektura" ta'lim dasturi uchun geodeziya, qurilish materiallari va bino-inshootlarni loyihalash bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni to'liq tashkil etish uchun zarur uskunalar yetarli emasligi aniqlanadi. Shu sababli texnik ta'minot bilan bog'liq indikatorlar (6.4 va 6.6-mezonlar) qisman muvofiq deb baholanadi. Xususan, laboratoriya salohiyatini rivojlantirish hamda tegishli yo'nalishlar bo'yicha maxsus jihozlar va malakali mutaxassislar bilan ta'minlash zarur deb topiladi. Arxitektura yo'nalishi uchun geodeziya, qurilish materiallari va loyihalash laboratoriyalarining mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki muhandislik-arxitektura kompetensiyalari aynan shunday moddiy-texnik baza negizida shakllanadi. Shu bilan birga, umumiy o'quv auditoriyalari, axborot-resurs markazi hamda raqamli ta'lim resurslari mavjud bo'lib, ular o'quv jarayonining asosiy ehtiyojlarini qondiradi. Aniqlangan kamchiliklar ta'lim dasturini amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydi, biroq laboratoriya bazasini bosqichma-bosqich rivojlantirish orqali bartaraf etilishi maqsadga muvofiq. O'tkazilgan tahlil

natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan yo'nalish muvofiq deb baholanadi, 6.4 va 6.6-mezonlar bo'yicha esa laboratoriya ta'minotini mustahkamlash zarur deb topiladi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Istiqbolli rivojlanish rejasining maqsad, vazifa va baholash ko'rsatkichlarini to'liq va aniq shakllantirish talab etiladi (1.2-mezon).
- ✓ Dastur maqsad va o'quv natijalarining akademik profil hamda mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiqligini dalillar bilan asoslash zarur (2.2-mezon); axborot-resurs sig'imini talabalar soniga muvofiqlashtirish talab etiladi (4.1-mezon).
- ✓ Professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyati past (19 nafardan 4 tasi ilmiy darajaga ega); ilmiy darajali kadrlar ulushini oshirish zarur.
- ✓ Geodeziya, qurilish materiallari va bino-inshootlarni loyihalash bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun laboratoriya uskunalari yetarli emas (6.4, 6.6-mezonlar) — laboratoriya bazasini rivojlantirish talab etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Istiqbolli rejani indikatorlar bilan to'liq shakllantirish va akademik profil muvofiqligini asoslash.
- ✓ Axborot-resurs markazi sig'imini talabalar kontingentiga muvofiqlashtirish.
- ✓ Maqsadli doktorantura orqali ilmiy darajali professor-o'qituvchilar ulushini oshirish.
- ✓ Geodeziya, qurilish materiallari va loyihalash laboratoriyalarini maxsus jihozlar va mutaxassislar bilan ta'minlash.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Guliston davlat universiteti" davlat muassasasida 60730100 – "Arxitektura" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar kompleks tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, dasturni amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv, o'quv-uslubiy va moddiy-texnik asoslar asosan shakllantirilgan bo'lib, barcha yo'nalishlar (bob) muvofiq deb topildi. Shu bilan birga, bir qator mezonlar bo'yicha qisman muvofiqlik qayd etildi: istiqbolli rejani to'liq

shakllantirish (1.2), dastur maqsadlarini akademik profil va mehnat bozori bilan muvofiqligini asoslash (2.2), axborot-resurs sig'imini talabalar soniga muvofiqlashtirish (4.1) hamda arxitektura yo'nalishi uchun geodeziya, qurilish materiallari va loyihalash laboratoriyalarini jihozlash (6.4, 6.6) talab etiladi. Bundan tashqari, professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirish zarurligi aniqlandi. Aniqlangan kamchiliklar dastur mazmunining mohiyatini inkor etmaydi va tegishli takomillashtirish choralari orqali bartaraf etilishi mumkin. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlariga mos keladi. Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	16.06.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	3-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

